

HAFIZOV Najmiddin Abdurashidovich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tayanch doktoranti

O'RTA ASRLARDA YOZILGAN FIQH ILMIGA OID LUG'ATLAR

СЛОВАРИ, НАПИСАННЫЕ В СРЕДНЕВЕКОВЬЕ ПО НАУКЕ ФИКХ

DICTIONARIES WRITTEN IN THE MIDDLE AGES ON THE SCIENCE OF FIQH

Annotatsiya: Maqolada o'rta asrlarda yozilgan fiqh ilmiga oid lug'at kitoblar haqida ma'lumotlar beriladi. Ushbu kitoblar islom dini ahli sunna tarkibidagi to'rt mazhab asosida yozilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Ular mazhablar kesimida yoritilib ko'rsatiladi. Undan tashqari bu turdagi kitoblar nafaqat islom ilmlarining fiqh sohasida balki, qolgan barcha sohalarida ham rivoj topganligini ushbu maqolada bilib olish mumkin.

Kalit so'zlar: Nasaf, fiqh, faqih, Movarounnahr, Tilbatu-t-talaba, Damashq, Dorul-fikr, islom ilmlari.

Аннотация: В статье приведены сведения о словарных книгах по юриспруденции, написанных в средние века. Видно, что эти книги были написаны на основе четырех мазхабов ислама. Они выделены в разделе номиналов. Кроме того, в этой статье можно узнать, что этот тип книг получил развитие не только в области исламского правоведения, но и во всех других областях.

Ключевые слова: Насаф, исламская юриспруденция, факих, Мавараннахр, Тильбату-т-талаба, Дамаск, Даруль-фикр, исламские науки.

Abstract: The article provides information about dictionary books on jurisprudence of islam written in the Middle Ages. It can be seen that these books were written on the basis of the four madhab's of love of the people of Islam. They are highlighted in the denominations section. In addition, in this article you can find out that this type of books has been developed not only in the field of Islamic jurisprudence, but also in all other fields.

Key words: Nasaf, fiqh, islamic jurist, Movarounnahr, Tilbatu-t-talaba, Damascus, Darul-fikr, Islamic sciences.

KIRISH

Yurtimizda ajdodlarimiz qoldirgan boy, qadimiy madaniy meros, ma'naviy qadriyatlarni, o'z haqqoniy tariximizni o'rganishga keng imkoniyatlar yaratilgani sir emas. O'zbek xalqining jahon afkor ommasi qarshisida yana shonli g'urur va o'zligini baland ko'tarishi uchun, avvalo, ming asrlar sinoviga dosh bergan, e'tiqod alovida to'plangan boy o'tmishini qayta tiklash birinchi galdagi vazifalardan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq "jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oya ostida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish [1:1] dolzarb hisoblanadi.

ASOSIY QISM

O'rta asrlarda fiqh ilmida yozilgan dastlabki istilohiy lug'at kitoblarini yoritishdan oldin umuman arab tili va uning asl mohiyatini ochib beruvchi lug'at kitoblaridan ba'zilarini keltirib o'tishni lozim topdik. Jumladan, 393/1002-3-yilda vafot etgan Abu Nasr Ismoil ibn Hammod al-Javhariy qalamiga mansub "as-Sihoh" kitobi, 711/1311-2-yilda dunyodan o'tgan afrikalik olim Jamoliddin ibn Manzur al-Afriqiy qalamiga mansub "Lison al-arab" kitobi hamda 817/1414-5-yilda vafot etgan Majiduddin Muhammad ibn Yoqub al-Firuzobodiy qalamiga tegishli "al-Qomus al-Muhit" [6:10] kitobi va boshqa kitoblarni misol qilib keltirish mumkin.

Shu o'rinda yana aytish mumkinki, avval boshda Qur'on oyatlari va ba'zi bir hadislarining ichida arablarning o'zlari ham tushunishlari qiyin bo'lgan va bir ma'nodan yana boshqa bir ma'no anglatuvchi so'zlar mavjud bo'lgan. Shunday so'zlarning barcha ma'nolarini ochib beruvchi kitoblar yozila boshlandi. Aynan ushbu kitoblar ham lug'at kitoblari turkumiga kiradi. Ana shu lug'at kitoblari sirasiga 276/889-90-yil vafot etgan Ibn Qutayba ad-Daynurning "G'arib al-Qur'on" kitobi, Movarounnahrda yetishib chiqqan buyuk olim, arab tilshunosligi ilmida dunyo arablarining o'zlari ham katta e'tirof bilan yod oladigan olim

Mahmud az-Zamaxshariyning “al-Foiq fi g‘aroyib al-Hadis” kitobi, 581/1185-6-yilda olamdan o‘tgan olim Abu Muso Muhammad ibn Abi Bakr al-Madaniy al-Isfahoniyni “al-Majmu‘ al-Mug‘iy fi g‘otibayn al-Qur‘on va-l-Hadis” kitobi, ibn al-Asir al-Jazariy nomi bilan mashhur bo‘lgan olim, 606/1209-10-yilda vafot etgan Majduddin Abu-s-Sodot al-Muborak ibn Muhammadning “an-Nihoya fi g‘arib al-hadis va-l-asar” kitobi va boshqa kitoblar kiradi. Eng e‘tiborlisi shundaki, yuqoridagi “G‘oriyib al-Qur‘on va-l-Hadis” mavzusida yozilgan kitoblarning deyarli barchasi shu davrimizdagi ko‘plab nashriyot va bosmaxonalarda bosib chiqarilgan. Aynan shu mavzuda va yana boshqa islom ilmlarining har qaysi sohasida umumiy va xoslab yozilgan lug‘at kitoblarini ko‘plab uchratish mumkin.

Islom ilmlarining asosiy sohalaridan biri bo‘lgan fiqh ilmi bilan shug‘ullanuvchi faqihlarning ham ushbu ilmda katta-katta lug‘at kitoblarini o‘zlaridan meros qilib qoldirganliklari e‘tiborga molikdir. Ularning bu kitoblarida qilgan ishlari asosan tushinilishi qiyin bo‘lgan fiqhiy istiloh va atamalarni yoritib berishdan iborat bo‘lgan. Eng e‘tiborlisi shundaki, islom dini ahli sunna yo‘nalishidagi to‘rt mazhabdan ham yetishib chiqqan ko‘plab ulamolar o‘zlarining mazhablari asosida lug‘at kitoblarini yozganlar. Ularning bu kitoblarni yozishlaridan iroda qilgan maqsadlari, ular o‘zlarining mazhablarida turib, fiqhiy mazhablardagi shar‘iy istiloh va atamalardan maqsad qilingan ma‘nolarni yoritib berishdan iborat bo‘lgan. Mazhab olimlarining lug‘at kitoblarini yozish uslublari har xil bo‘lgan. Shuni ham aytish kerakki, to‘rt mazhabda yozilgan nafaqat lug‘at kitoblari balki, din ilmlarining barcha jabhasida ham boshqa mazhablar hanafiy mazhabidan tartib va yo‘nalish o‘rganganliklarini uchratish mumkin. Quyida islom olamida yozilgan fiqhiy-istilohiy lug‘at kitoblarining mazhablarda yozilish tarixi bo‘yicha ma‘lumotlar berish niyat qilindi.

O‘rta asrlarda Movarounnahrda yozilgan fiqh ilmiga oid istilohiy lug‘at kitoblari orasida eng mo‘tabar va mashhurlaridan biri Abu Hafs Nasafiyning “Tilbatu-t-talaba” asaridir. Qomusiy olim Abu Hafs Nasafiy o‘rta asrlarda ilmning turli sohalarida faoliyat olib borgan mutafakkirdir. Uning yozgan asarlarining umumiy soni 100 dan ortiq. Olimning to‘liq ismi manbalarda Najm ad-din Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad

ibn Ismoil ibn Muhammad ibn Ali ibn Luqmon an-Nasafiy summa as-Samarqandiy al-Hofiz al-Faqih az-Zohid al-Hanafiy tarzida keltiriladi. Ammo ba‘zan Nasafning qadimiy nomi Naxshabga nisbat berilib, muallifning ism-nisbasi an-Nasafiy o‘rniga an-Naxshabiy shaklida ham uchraydi. Asli nasaflik bo‘lib, umrining asosiy qismini Samarqandda o‘tkazgani uchun unga “an-Nasafiy summa as-Samarqandiy” (“nasaflik”, so‘ngra “samarqandlik”) ismi-nisbatlari ishlatilgan. Asosan, mutafakkir ilm olamida Abu Hafs Nasafiy nomi bilan mashhurdir [3:8].

Allomaning insonlar va jinlarga dars bergani to‘g‘risida turli rivoyatlar bor. Shu sababli u kishini “insonlar va jinlarning muftiysi” [7:4] deb atashgan. Abu Hafs Nasafiy haqida 20 dan ortiq islom tarixiga oid o‘rta asr manbalari xabar beradi. Allomaning hayoti haqida ilk ma‘lumotlarni undan keyingi davrda yashagan zamondoshi Abu Sa‘d Abdulkarim ibn Muhammad as-Sam‘oniy al-Marvaziy (vaf. 1167 y.) o‘z asarida keltiradi. Masalan, Abu Sa‘d Sam‘oniy o‘zining “Kitob al-ansob” asarida Abu Hafs Nasafiyning ismini 27 joyda eslab o‘tganligini ko‘rish mumkin. Ushbu davrdan keyingi olimlar esa asosan Abu Sa‘d Sam‘oniy keltirgan ma‘lumotlarni o‘z kitoblarida takror keltiradilar. Ba‘zan esa unga yangi tafsilotlarni qo‘shimcha qiladilar. Abu Hafs Nasafiyning tug‘ilgan yili xususida bir oz noaniqlik bor, chunki u manbalarda aniq zikr etilmagan. Bu sana tadqiqotlarda “Abu Hafs Nasafiy hijriy 461 yoki 462-yilda tavallud topgan bo‘lsa kerak” tarzida keltirilgan bo‘lib, bu tarix milodiy 1068-1070-yillarga to‘g‘ri keladi. Ammo ba‘zi adabiyotlarda bu raqam 1068 tarzida berilishi taxminiy ahamiyatga egadir [4:40].

Olim o‘zidan meros qilib qoldirgan asarlari orasida “Tilbatu-t-talaba” kitobi katta ahamiyatga ega bo‘lib o‘sha davr uchun juda ahamiyatli bo‘lgan. Islom ilmlarining barcha sohalarida kitob yozib yosh avlodni ilm chashmasi bilan sug‘orib kelayotgan olim huzuriga bir kuni shogirdlari kelib ba‘zi bir fiqhiy terminlarga duch kelishayotganlari va unga tushinish qiyin bo‘layotganligini aytib arz qilishadi. Shu voqea sabab bo‘lib olim hanafiylik fiqhiga oid fiqhiy atamalarni, so‘z va istilohlarni o‘z ichiga olgan, talabalar o‘qiganda tushunishlari oson boladigan bir kitob yozishga kirishadi. Ushbu kitobning muqaddima qismida ham olim bu haqda shunday deydi: “huzurimga bir guruh ahli ilmlar kelib, ilmiy va adabiy iqtiboslarda tushinishi qiyin

bo'lgan so'zlarni sharhlab berishimni mendan so'radilar..." [6:10].

Kitob yozilib, ahli ilmlar diqqat e'tiboriga havola etilgandan keyin kitob mashhur bo'lib ketdi. Bunga ba'zi bir etiborli sabablar mavjud edi. Bizdagi ushbu kitobning tadqiqot olib borilayotgan nusxasi Damashqdagi "Ommaviy fatvolar idorasi" mudarrisi Shayx Xolid Abdurrahmon al-Ak tomonidan sharhlab, nashrga tayyorlangan, uchinchi nashri 2015-yilda Damashqdagi "Dor an-Nafois" nashriyotida chiqqan nusxasidir. Bu kitobning birinchi nashri 1993-yilda, ikkinchi nashri esa 1999-yilda chop etilgan. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, "Tilbatu-t-Talaba" asarining shu nashrini tadqiq etish davomida mudarris Shayx Xolid Abdurrahmon al-Ak har doim olimning nomini tilga olganda "Alloh rahmatiga olsin" jumlasini ishlatganligiga duch kelindi.

Ushbu kitob muallifi, olim Abu Hafs Nasafiy bu kitobi orqali islom ilmlari sohalarining mutaxassislari bo'lgan tolibi ilmlarga murojaat qilgan holda ularning bu ilmlarga bo'lgan muhabbatlarini rag'batlantirish, ularga yordam berish va ular tushinmagan va qiyin bo'lgan ma'lumotlarni ularga tushintirishga qattiq kirishgan va bu ishga judayam haris bo'lgan [6:63]. Shu maqsadda ochiq va tushinarli bo'lgan uslub va shakldan foydalangan bu foydali kitobni ular uchun yozib qoldirgan. U kitob shunday yozilganki, qisqa so'zlar va tushintirishlar orqali keng ma'nolar ochib berilgan. "Hanafiy fiqhi lug'ati" nomini olgan bu kitob o'zi qisqa yozilgan bo'lsa ham keng ma'nolarni qamrab olganligi e'tirofqa sazovordir.

Bu mo'jaz kitob muayyan lug'at ilmiga oid qoidalar, fiqhiy so'z va iboralar bilan chegaralangan. Maqsadli, qisqa-qisqa ta'riflar bilan kifoyalanilganligini ko'rish mumkin. Fiqhiy so'z va iboralarni izohlab berish va mo'jaz qilib qisqartirib berishda fiqh ahli yo'lini tutgan. Allomaning ushbu kitobni yozish uslubining boshqa tilshunos olimlarnikidan ajralib turadigan tomoni shundaki, so'zlar tarjimalariga ko'p ortiqcha narsalarni qo'shib tashlash va chuqurlashtirib yuborishdan uzoq bo'lgan. Keraksiz darajada kengaytirib ham yubormagan.

Yuqoridagi aytilgan gaplar olim qo'llagan umumiy uslublardan edi. U kishining qo'llagan ilmiy uslublariga keladigan bo'lsak, muallif o'z kitobini yozishda shunga odatlanganki, avvalambor so'zlar ketidan birinchi navbatta ularning lug'aviy

ma'nolari keltiriladi. Undan keyin esa ularning fiqhiy-istilohiy ma'nolarini keltiradi. So'ngra ularga Qur'on oyatlari va nabaviy hadislardan isbotlarni keltirib o'tadi. Yuqorida aytgan gaplariga isbot sifatida dalillarni keltiradi yoki ba'zi bir istilohlardan naql qilib o'tadi. Ko'pincha esa so'zlarning shunday istilohiy ma'nolariga dalillarni keltirmaydi.

Muallif (Alloh taalo uni rahmatiga olsin) fiqhiy kitoblar va ularning boblari nomlarini istilohiy nomlari bilan boshlaydi. Undan so'ng esa fiqhiy mavzularni chegaralamagan holda har bir bob va bandlarda muhim istilohiy-fiqhiy lafzlar va juda kam uchraydigan so'zlarni keltirishni boshlaydi.

Olim hanafiy kitoblarning orasidan mana shu kitobni asosiy obyekt qilib tanlagan. Undan keyin hanafiy mazhabidagi hadis, tafsir, lug'at, fiqh va boshqa kitoblarida kam uchraydigan lug'at ilmi va tafsir ilmiga oid bayoniy asoslarni keltirgan. Abu Hafs Nasafiy o'zining bu kitobida yuqoridagi ilmlarga suyanadi. Shunisi qiziqarliki, alloma kitobidagi bu nodir ma'lumotlarni qayer va qaysi manba'dan olinganligini kamdan-kam hollarda keltirib o'tadi.

Shu bilan birgalikda o'z fikrlarini dalillash maqsadida Payg'ambar alayhissalom hadislaridan isbotlar keltiradi. Eng qizig'i shundaki, hadislarini keltirishda ularning sahih va hasanligiga etibor berilmaydi. Sababi olim o'ziga yetib kelgan rivoyatlarga suyanadi. Shunisini aytish kerakki, o'sha rivoyatlarning orasida sahihlari ham bor, illatli lari ham bor. Bu kitob ustida ish olib borgan olim shayx Xolid Abdurrahmon al-Ak yuqoridagi holatlarga guvoh bo'lib, bu haqidagi fikrlarini hadislarining to'g'rilarini chiqarib olish qismida aytib o'tgan.

Bu kitob o'ziga yarasha foydali va kamchiliklari bilan birga manfaatli va nodir kitoblar sarasidan joy olgan. U ilm talabida yurgan o'quvchilarni keng va mo'l-ko'l ilmiy-asosli ma'lumotlar bilan boyitadi. Shayx Xolid Abdurrahmon al-Ak kitob yozilishiga ta'rif berib bo'lgandan so'ng oxirida Abu Hafs Nasafiy uchun Allohga duo qilganligi ham olimning qoldirgan ushbu asari undan keyingi olimlarning e'tiboridan chuqur joy olganligidan dalolatdir. Ayni damda mana shu kitobni tahqiq qilish va o'rganish maqsad qilingandir. Aynan shu kitob fiqh ilmini o'rganuvchilar uchun shu ilmning eshiklarini ochib berishda juda katta yordam beradi. Sababi, fiqh ilmidagi mavzularni to'liq tushinish

uchun albatta undagi hamma jumlarlar tushinilishi kerak. Bu ishga shu kitob katta ko'mak beradi. g'

Yana huddi shunaqa fiqh ilmining istilohlariga oid kitoblarni yozib qoldirgan hanafiy olimlaridan biri, 616/1219-20-yilda rihlat qilgan olim al-Muttariziy Abu al-Fatih Nosir ibn Abdussayyidning "al-Mug'rib fi tartib al-Mu'rib" kitobidir. Bu kitobda hanafiy mazhabi asosida fiqhiy istilohlar va boblar asosli ravishda tushintirilib o'tilganini ko'rish mumkin.

Fiqhiy lug'at yozib qoldirgan ulamolardan yana biri shayx Qosim al-Quvnaviydir. U kishi 987/1579-80-yilda vafot etganlar. Olim kitobi "Anyasu al-Fuqohai fi ta'rifati al-Alfazi va al-Mutadavilati bayna al-Fuqohai" [6:10] deb nomlanadi. Bu kitob ham fiqhiy lug'at kitoblar tartibi asosida yozilgan. Olim ushbu kitobda eng avval so'zlarning lug'aviy ma'nolarini ochib berishga katta e'tibor bergan. So'ngra ushbu so'zlarning istilohiy ma'nolarini tushintirishda Qur'on oyatlari va nabaviy hadislarini dalil qilib keltirgan. Ba'zi holatlarda esa dastlab so'zlarning istilohiy ma'nolarini so'ngra lug'aviy ma'nolarini keltirganlarini uchratish mumkin.

Yana bir olim, hanafiy mazhabi faqihi, "Masnafat" nomi bilan mashhur bo'lgan alloma, 875/1470-71-yilda vafot etgan Ali ibn Majudiddin ibn ash-Shahirudiy al-Bistomiy edi. U kishi yozib qoldirgan lug'at kitobi "al-Hudud va al-Ahkom al-Fiqhiya" deb nomlanadi. Ushbu kitobda olim fiqhiy so'zlarning shar'iy qismlari va ma'nolarini jamlagan. Fiqhiy lafzlardagi hukmlarning chegaralarini aniqlab bergan. Misol uchun "Vojib" so'zi nima degani, unga amal qilish darajasi qanday va uning shar'iy chegarasi qayerligini aniqlab bergan. Ushbu kitobning yana bir muhim tomoni shuki, unda boblar va bo'limlarning umumiy nomlari ham aniqlangan hamda ular aynan bir ko'rinishda tartiblar berilgan.

Huddi shunday fiqhiy boblar va bo'limlar tartiblab yozilgan kitob mavjud bo'lib, bu uslubni "Zaynul Obidiyn Ibrohiym" nomi bilan mashhur bo'lgan, 970/1562-3-yilda vafot etgan olim ibn Nujaym al-Misriyning fiqhiy istilohlarga oid lug'at kitobida uchratish mumkin. Lekin bu olimning asari nomi bizga ma'lum emas.

Yuqoridagi fiqhiy termin va istilohlarga oid yozilgan kitoblar va ularni yozib qoldirgan ulamolarning hammasi Hanafiy mazhabiga oid ekanliklarini ko'rishimiz mumkin. Quyida esa

"Ahli sunna" yo'nalishidagi qolgan uch mazhab ichida yozilgan fiqhiy lug'at kitoblari keltiriladi.

Imom Abu Hanifaning shogirdi bo'lmish imom Molik asos solgan Molikiy mazhabidagi ulamolar ham o'zlaridan katta meros qoldirib ketganlar. Ular ham shariy ilmlarning barcha sohalarida ko'p yutuqlarga erishganlar. Fiqh ilmida ham katta ishlar qilganlar. Buning natijalarini ularning fiqhiy atamalarga bag'ishlab yozgan kitoblarida ko'rishimiz mumkin. Jumladan, 749/1348-9-yilda vafot etgan olim Izzuddin Abu Abdulloh Muhammad ibn Abdussalom al-Umaviy at-Tunisiy fiqhiy atamalarga oid bir kitob yozganlar. U kitobni "Tanbih at-Tolib li fahmi ibn al-Hojib" deb nomlagan. Aslida bu kitob Ibn Hujib nomi bilan mashhur bo'lgan, 242/856-7-yilda olamdan o'tgan olim Abu Umar Usmaning "Jomi' al-ummahot fi fiqhi Malik" deb nomlangan kitobining barcha lafzlariga sharh sifatida yozilgan. Ushbu kitobni esa ya'ni, "Tanbih at-Tolib li fahmi ibn al-Hojib" [6:11] kitobini Ibn Abdussalom chuqur o'rganib chiqib, ichidagi iboralarni arab alifbosi tartibi ka'bi tartiblab chiqib, qayta yozgan. Molikiy mazhabida yozilgan yana bir kotibni Ibn Abdulloh ibn Muhammad ibn Urfa degan olim yozib qoldirgan. U kishi 803/1400-01-yilda olamdan o'tgan. Asarini "al-Hudud fi at-torif al-fiqhiya" deb nomladi. Bu kitob ham o'z navbatida ko'p nashrlarda bosib chiqarilgan va keng tarqalgan.

Imom Abu Hanifaning yana bir shogirdi sifatida tanilgan mujtahid olim, "Shofiiy" mazhabi asoschisi bo'lgan imom Shofiiy mazhablarida ham lug'at kitoblar yozish borasida katta-katta ishlar qilingan. Jumladan, al-Imom Abu Mansur Muhammad ibn Ahmad al-Azhariy al-Haroviy. Bu olim fiqh ilmini tushinishga katta yordamlarini ayamagan holda bir foydali kitob yozib qoldirganki, aynan shu kitob faqihlar uchun fiqh ilmini chuqur tushinishlari uchun uning sir-asrorlarini keng ochib bergan. Fiqhiy so'zlar va atamalarni aniq anglash uchun barcha ma'nolarni xos holatda yoritib beruvchi faqihlarga bu nodir kitob fiqh ilmida tafsir kitob sifatida namoyon bo'lgan. Ular uchun asosiy dastur kitob bo'lib xizmat qilgan. Shu kitob yordamida faqihlar uchun hech qanday notanish va tushinarsiz so'zga duch kelish muammosi bo'lmagan. Agar holat shunday bo'ladigan bo'lsa buning javobi albatta ushbu kitobdan topilgan. Bu olim 370/980-1-yilda vafot etgan. O'zidan keyingi avlod uchun qoldirgan

ushbu nodir kitobining nomini “az-Zohir fi g‘ariyb al-alfoz ash-shofiiy” deb nomlagan. Bu kitobni Ihson Abbos ismli olim Bayrutdagi “Dor as-Saqofa” nashriyotida tahqiq qilib chiqargan. Yana bir nodir kitob yozib qoldirib, Shofiiy mazhabi rivojiga katta hissa qo‘shgan olim, ulug‘ imomlardan bo‘lgan Abu Zakariyo Muhyuddin ibn Sharif an-Navaviy edi. U kishi 272/885-6-yilda vafot etgan. U kishining mashhur kitobi “Tahzib al-asmoi va al-lug‘ati” deb nomlanadi. U kitobning ichida imom Shofiiy mazhabiga taalluqli bo‘lgan, aynan fiqhiy-istilohiy so‘zlarning barchasini jamlagan. Undan tashqari olim yana kitob yozib qoldirgan. U kitobini “Tahrir al-fazl at-tanbihi” yoki “Lug‘at al-fiqh” deb nomlagan. Bu kitobni esa Shayx Abdulg‘oniy Addaqri degan olimning tahqiqi ostida Damashqdagi “Dor al-Qolam” nomli nashriyotda bosmadan bosib chiqarilgan.

Shofiiy mazhabi tarixida o‘zining ilmi va izlanishlari bilan chuqur iz qoldirgan olimlardan yana biri Imom Abulabbos Ahmad ibn Muhammad ibn Ali al-Fayumiy al-Muqriy edi. U kishi ham fiqh ilmidagi katta foyda keltirgan fiqhiy lug‘at yozib qoldirgan. Olim foni dunyoni 770/1368-9-yilda tark etgan. Olimni manfaatli kitobining nomi “al-Misbah al-Munir fi g‘ariyb ash-sharh al-kabir li al-Rofiiy” deb nomlanadi. Olimning bu kitobi ahli ilmlar ichida juda mashhurdir.

Shu joygacha ahli sunna va al-jamoa tarkibidagi uch mazhab asosida dastlabki lug‘at kitoblari keltirib o‘tildi. To‘rtinchi mazhab bo‘lgan, Imom Hanbal asos solgan Hanbaliy mazhabida ham istilohiy lug‘at kitoblari yozilgan. Jumladan, 709/1309-10-yilda vafot etgan alloma Muhammad ibn Abulfath al-Baliy al-Hanbaliy imom Muvaffaqquddin ibn Quddoma al-Maqdusiyning “al-Mustalahot al-fiqhiya va-l-alfoz al-g‘arbiya al-varida fi-l-muqini” kitobiga sharh o‘laroq Hanbaliy fiqhida juda nodir bo‘lgan lug‘at kitobini yozib qoldirgan. Bu manba ham shu kungacha katta adadlarda nashrlardan chiqib kelmoqda.

Yuqorida ko‘rsatilgan to‘rt mazhab tarkibida yozilgan lug‘at kitoblari boshqa yana ko‘plab kitoblarni bu borada misol qilib keltirish mumkin. Masalan, Abu Hotim Ahmad ibn Hamdon ibn Ahmad al-Roziy o‘zining “az-Ziynatu fi al-kalimoti al-islamiyati al-arabiyati” kitobini yozib qoldirgan. Olim 322/934-5-yilda vafot etgan. Alloma kitobining muqaddimasida shunday gaplarni yozadi: “bu kitobda ismlarning ma’nolari,

lafzlarning kelib chiqish sabablari, faqihlar, hattoki adiblar ham o‘zlarida ularga nisbatan doimiy ravishda ehtiyoj sezadigan arab tilidagi fasohatli iboralar mavjuddir. Biz bu ibora va nozik so‘zlarni bizdan oldin o‘tkan ulamolarning bizga qoldirgan meroslaridan foydalangan holda shakllantirdik. U olimlar orasida barcha ilm xodimlari, jumladan, muhaddislar, adiq ilmi sohiblari va boshqalar mavjuddirlar. Xattoki, “G‘arib al-Qur‘on va al-hadis” ilmidagi foydalaniladigan mashhur shoirlarning sherlaridagi ibora va jumlar ham mavjuddir” [6:11]. Bu kitobning etiborli tomoni shundaki, asar fiqhiy lug‘at kitoblari orasida eng qadimiylaridandir.

Fiqhiy-istilohiy lug‘at kitoblari tashqari o‘zining ichiga ham fiqh ilmi ham islom ilmlarining boshqa sohalarini ham qamrab oladigan ba’zi bir katta lug‘at kitoblari yozilganligiga ilmiy ishni bajarish davomida guvoh bo‘lindi. Xususan bunday kitoblarga misol qilib 826/1423-4-yilda vafot etgan olim Sayyid Sharif Ali ibn Muhammad al-Husayni al-Jurjoniyning “Ta’rifot” kitobini keltirish mumkin. Yana 1093/1682-3-yilda vafot etgan alloma “Ayyub ibn Muso al-Hasaniy” nomi bilan mashhur bo‘lgan olimning “Kulliyot” kitobi ham bunga misol bo‘la oladi. Olimning bu asari doimiy ravishda nashrdan chiqarilib turadi. “Kashshof istilohot al-fiqhiya” kitobi ham shular jumlasidandir. Bu kitobni Muhammad ibn Ali at-Tahonaviy degan olim 1745-yilda yozib tugatgan va o‘sha yilning o‘zida bosmadan chiqqan. Kitob yozilgandan so‘ng tez orada islom olamida katta shuhrat qozondi. Bu kitob islom ilmlaridagi insklapedik asar sifatida ko‘rila boshlandi. Shuningdek, “Dasturul-ulamo” nomini olgan olim Abdunnabiy ibn Absurrosul al-Ahmad Nakariyning “Jomi al-ulum fi istilohoti al-fununi al-ma’rufi” degan kitobi ham shu mavzuga oid asardir. Bu kitob Hindiston va Bayrut nashriyotlarida bosmadan bosib chiqarilganligini ko‘rish mumkin.

O‘tgan asrimizda fiqhiy lug‘at kitoblarni yozish va bu ilmni takomillashtirish jadal ravishda davom etmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Hanafiy fiqhida juda nodir manba hisoblanadigan, buni dunyo ulamolari ham e’tirof etishadigan bir kitob bor. U kitob “al-Hidoya” deb nomlanadi. Bu kitobni yozgan olim Abu Hafs Nasafiyning shogirdlaridan bo‘lgan, Movarounnahr diyoridan yetishib chiqqan olim Burhoniddin al-Marg‘inoniy edi. Uning shunchalik e’tiborga loyiq jihati

shundaki, ushbu asar nafaqat Hanafiy mazhabida eng nodir manbalardan balki, qolgan uch mazhablarda ham asosiy kitoblar tarkibidan joy olgan. Xattoki, Zohiriy mazhabi aqidasi ham aynan shu kitobdan raddiya sifatida foydalaniladi. “Bidayatu al-mujtahid” nomi ostidagi kitob mavjud bo‘lib, bu kitobni alloma Ibn Rushd yozib qoldirgan. Bu asar ham fiqhiy atamalarni aniq tushinishda to‘rt mazhab olimlari va aynan Molikiy fiqhida keng foydalaniladi. Imom G‘azzoliyning “al-Vajiz” kitobi mazjud bo‘lib, bu kitob ham Shofiiy mazhabida keng foydalaniladi. Ibn Quddomaning “al-Muqni” kitobi mavjud bo‘lib, bu asar Hanbaliy fiqhida yozilgan. Ma‘lumot o‘rnida aytib o‘tish mumkinki, Ibn Hazmning “al-Muhilla” kitobi bo‘lib, bu kitob Zohiriy mazhabida yozilgan.

Yuqorida keltirib o‘tilgan beshta mashhur kitoblarni, ya‘ni “al-Hidoya”, “Bidayatu al-mujtahid”, “al-Vajiz”, “al-Muqni” va Ibn Hazmning “al-Muhilla” asarlarini o‘z ichiga olgan, ularni o‘zida jamlagan asar mavjud bo‘lib, bu kitob “ad-Dalil ila mavtin al-bahsi an al-alvozi va al-mustalahoti va al-mavduoti al-fiqhiyati” [6:12] deb nomlanadi. Bu kitob Doktor Ahmad Zakiy Abdulbarning qalamiga mansub bo‘lib, Damashq universitetining “Shariat fakulteti” ulamolari nazorati ostida 1971-yilda keng ko‘lamli adadlarda bosib chiqarildi. Shundan keyin fakultet ulamolari Doktor Ahmad Zakiy Abdulbarning bu asarini kengaytirishni davom ettirish uchun uni ustoz Muhammad Hoshim al-Burhoniya topshirishdilar. 1977-yilda esa ustoz Muhammad Hoshim al-Burhoni “ad-Dalil ila mavtin al-bahsi an al-alfozi va-l-mustalahoti va-l-mavduoti al-fiqhiyati” kitobiga asoslanib fiqhiy mazhablar doirasida “Sa‘diy Abu Jaybin” nomli katta qomus kitobini yozadilar. U kitobning o‘ziga xos tomoni shunda ediki, unda so‘zlar va istilohlar alohida-alohida qilib tushintirilgan edi. Bu kitob shu yilning o‘zida Damashqdagi “Doru-l-fikr” bosmaxonasida nashrdan chiqariladi.

Bundan tashqari 1930-yilda Damashqdagi Arab ilmiy akademiyasi shu dargohdagi katta bir olim shayx Ahmad Rizoga qadimiy bo‘lgan arab tili tarixida yastanib yotgan nozik so‘zlar va iboralarni topish, hozirda shariat ilmida qo‘llanilayotgan so‘zlar va atamalarni bir to‘plamga jamlashni vazifa qilib beradi. Olim bu ishni bajarishda o‘zidagi katta salohiyatni ishga solgan holda 1947-yilda vazifani yakunlaydi. Qayta tuzatish va to‘g‘irlashlardan

so‘ng kitob 1953-yilda nashrga tayyor bo‘ladi. Bu kitob beshta katta jildda nashdan chiqq boshlaydi. Ushbu asar dunyo musulmon ulamolarining orasida katta hurmat qozonadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, islom ilmlarining fiqh sohasida yozilgan lug‘at kitoblari lug‘atshunoslik va terminalogiya ilmida katta ahamiyatga egadir. Buning misolini yuqorida islom tarixida yozilgan fiqhiy lug‘at kitoblarining adadida ko‘rish mumkin. Bugungi kunda rivojlanayotgan mustaqil O‘zbekistonda bu kabi asarlarni chuqur o‘rganishga bo‘layotgan erkinlik va harakatlar albatta yaqin yillarda o‘zining katta samarasini beradi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-aprelidagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5416-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-3686277>
2. Абу Хафс ‘Умар ибн Муҳаммад Ан-Насафий. ал-Қанд фи зикр ‘уламо’ Самарқанд / Назар Муҳаммад ал-Форйобий тахрири остида. – Саудия Арабистони: Мактабат ал-Кавсар, 1991. – 622 б.
3. Раҳимжонов Д. Абу Хафс Насафий ва унинг «Китоб ал-қанд» асари / Монография. – Тошкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. – 178 б.
4. Rahimjonov D. Abu Hafs Nasafiy. Monografiya. – Toshkent, 2010. – 40 b.
5. Раҳимжонов Д. Имом Бухорий ва Насаф ҳадис мактаби // Имом ал-Бухорий сабоқлари. – 2000. – № 2. – Б. 91-93.
6. Najmuddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad an-Nasafiy . Tilbatu-t-talaba. – Bayrut: Dor an-Nafois , 2015. – 351 b.
7. Элмуродов Р. “Тилбатут талаба” асарининг ёзилиш тарихи, услуги ва қўлёзма нусхалари // <https://www.bukhari.uz/?p=23353> [мурожаат санаси 19.12.2023](https://www.bukhari.uz/?p=23353)